



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th January, 2025

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИ САМАРАДОРЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР

Mamayusupova Muattar Qosimjonovna

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya:

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari boshqaruv faoliyatining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar ta’lim tizimining rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini oshirishga ta’sir ko‘rsatadigan ichki va tashqi omillar tahlil qilinadi. Ta’lim muassasalarining resurslardan samarali foydalanishi, rahbarlarning boshqaruv uslublari, pedagogik kadrlarga qo‘yiladigan talablar va jamiyatning ta’lim tizimiga bo‘lgan munosabati kabi omillar alohida e’tiborga olinadi. Shuningdek, boshqaruv jarayonlarida innovatsion texnologiyalar va metodlarning qo‘llanilishi, boshqaruv strukturasi va me’yoriy-huquqiy asoslarning ahamiyati o‘rganiladi. Maqolada ta’lim tashkilotlari boshqaruvining samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar va yechimlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Umumiy o‘rta ta’lim, boshqaruv faoliyati, samaradorlik, boshqaruv uslubi, strategik reja, funksional strategiya, boshqaruv tizimi, tashqi omillar, ichki omillar.

"ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мамаюсупова Муаттар Косимжановна

независимый исследователь Наманганского государственного университета.

Аннотация:

Факторы, влияющие на эффективность управленческой деятельности образовательных учреждений общего среднего образования, имеют значительное значение для развития системы образования. В статье



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th January, 2025

анализируются внутренние и внешние факторы, которые влияют на повышение эффективности управления в образовательных учреждениях общего среднего образования. Особое внимание уделяется таким факторам, как эффективное использование ресурсов образовательными учреждениями, стили руководства, требования к педагогическим кадрам и отношение общества к системе образования. Также рассматривается применение инновационных технологий и методов в управлеченческих процессах, важность управлеченческих структур и нормативно-правовых основ. В статье предлагаются необходимые условия и решения для повышения эффективности управления образовательными учреждениями.

Ключевые слова: Общее среднее образование, управлеченческая деятельность, эффективность, стиль управления, стратегический план, функциональная стратегия, управлеченческая система, внешние факторы, внутренние факторы.

FACTORS INFLUENCING THE EFFECTIVENESS OF MANAGEMENT ACTIVITIES IN GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS

Mamayusupova Muattar Qosimjonovna

Independent Researcher at Namangan State University

Annotation:

The factors influencing the effectiveness of management activities in general secondary education institutions are of significant importance for the development of the education system. This article analyzes the internal and external factors that affect the improvement of management effectiveness in general secondary education institutions. Factors such as the efficient use of resources in educational institutions, leadership styles, requirements for pedagogical staff, and society's attitude toward the education system are specifically addressed. Additionally, the application of innovative technologies and methods in management processes, the structure of management, and the importance of legal and regulatory frameworks are examined. The article offers suggestions on the necessary conditions and solutions for improving the effectiveness of management in educational institutions.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain


Website: econfseries.com

20th January, 2025

Keywords: General secondary education, management activities, effectiveness, leadership style, strategic planning, functional strategy, management system, external factors, internal factors.

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari boshqaruv samaradorligiga erishish uchun tashkilot rahbarlari tashkilotning asosiy maqsadlari yo‘nalishida strategik rejalshtirish sirlarini, boshqaruv usullari, metodlari xamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni bilishi va bular asosida jamoaning integrativ faoliyatiga murakkab pedagogik tizim sifatida yondashuvlarga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyatni tashkil etishning zarurligini inobatga olgan holda maktab direktori boshqaruv faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar maktab boshqaruvini ichki va tashqi o‘zgarishlarga moslashtirish, rahbarlik uslublaridan korporativ foydalanish, ta’lim menejmenti tamoyillarini o‘zlashtirish va qo’llash, boshqaruvni maktabning faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo‘naltirish asosida belgilashni ko‘rsatadi.



1.3- Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari boshqaruv faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th January, 2025

“Strategik reja — bu umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘zlangan maqsadlarga erishish - raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash yo‘nalishida uzoq (besh, o‘n yil va undan ko‘proq muddatlarni o‘z ichiga oladi) muddatlarga mo‘ljallangan vazifalarni o‘z ichiga olgan dastur (istiqbol reja) bo‘lib, u ta’lim muassasasining xamda raxbar-xodimlarning yillik va joriy rejalar uchun asos sifatida xizmat qiladi” [b-71].

“Strategik reja - tashkilot missiyasini va rivojlanish yo‘nalishini, strategiyani, uzoq va qisqa muddatli maqsadlarni aks ettiradi” [2.93-b].

Strategik reja - bu umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining raqobatbardoshligini oshirish va uzoq muddatli maqsadlari, vazifalari va ularga erishish strategiyasini belgilaydigan reja. Strategik rejada ma’muriyat va xodimlar, hokimiyat va jamoatchilik uchun kelajakni ko‘rishni hisobga olgan holda tezkor qarorlar qabul qilishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan g‘oyalar mavjud. Strategik reja boshqa turdagи rejalarini bekor qilmaydi yoki almashtirmaydi, u faqat ta’lim tashkiloti uchun eng muhim, ustuvor yo‘nalishlarda rivojlanishni belgilaydi.

Strategiyani rejani ishlab chiqishda quyidagilarni hisobga oling:

- Ta’lim tizimi, umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti faoliyatining barcha sohalarini qamrab olish;
- Tashqi sharoitlar bilan muvofiqlik;
- Resurs imkoniyatlariga muvofiqligi;
- Ta’lim tizimini, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotini rivojlantirishning uzoq muddatli yo‘nalishlari bilan aloqa qilish;
- Umumiyo‘rta ta’lim tashkiloti tomonidan qabul qilingan maqsad va vazifalarda ustuvorliklarni hisobga olish;

“Strategik rajalashtirish - bu umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirish zarur bo‘lgan vazifalarni belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun boshqaru funksiyalari, metodlari xamda maqsadlarini aniqlash va amalga oshirish yuzasidan strategik rejalar ishlab chiqish jarayoni bo‘lib, bunda maqsad va vazifalarning ilmiy asoslanganligi, belgilangan muddatlarning aniqligi va ob’ektivligi, ijrochilarning bilimi va kasb maxorati, tashqi muhit ta’siri, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, tashkilot imkoniyatlari, shuningdek,



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th January, 2025

boshqaruv strategiyasi, ya’ni strategiyani amalga oshirishni boshqarish yo‘nalishlari o‘rganilib taxlil qilinadi” [3.b-72].

Boshqaruv strategiyasi ko‘zlangan maqsadlarga erishishda umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti faoliyatini takomillashtirish, pedagogik xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, strategik reja asosida faoliyatni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishida asosan boshqaruvning ikki xil turini nazarda tutadi: strategik boshqaruv, kon’yunkturaviy boshqaruv. Amaliy faoliyatda u yoki bu boshqaruv yo‘nalishining ustunligi tashkiliy tizimning yangilik darajasi ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi.

“Strategik boshqaruv - bu umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining strategik maqsadi yo‘nalishida muassasa imkoniyatlarini pedagogik hodimlarning umumiy manfaatlari bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatga tuzilgan dastur, reja va loyihalar asosida boshqarishdir. Strategik boshqaruv odatda, mazkur tizimni boshqaruv madaniyatining yuqori darajasini belgilovchi keng innovatsion dasturlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi” [4.b-73].

Umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirib borishda, eng avvalo, ko‘zlangan maqsadlarga erishishda faoliyatning strategik rejasini tuzish va mazkur reja asosida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining istiqbol maqsadi va imkoniyatlarini xodimlar manfaati bilan uyg‘unlashtirishni xamda ta’lim tashkilotining faoliyatini zamonaviy o‘zgarishlarga moslashtirib borish, ta’lim innovatsiyalarini joriy etishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli boshqaruv usullarini boshqaruv jarayoniga tatbiq etish zarur. Bu o‘z navbatida istiqbolni tadqiq qilish va maqsadlarga erishishda, rivojlanishga ta’sir etuvchi omillarni oldindan taxlil qilishda zaruriy bilim, rivojlantiruvchi bunyodkor g‘oyalar va ularni amalga oshirish san’ati zaruriyatini belgilaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida innovatsion boshqaruv jarayonida tashkilotning istiqbol maqsadi va imkoniyatini pedagog xodimlarning manfaatlari bilan uyg‘unlashtiruvchi uzoq muddatli boshqaruv usullari -strategik boshqaruvning amaliyotga qo‘llanishi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim axamiyat kasb etadi.

Boshqaruv jarayonini takomillashtirish xamda umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti oldidagi vazifalarni zamonaviy talablar darajasida bajarishda maxsus,



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th January, 2025

funksional, mujassamlashtirilgan va diversifikatsiyalashgan strategiyalarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. ¹ С.Т.Турғунов, Л.А.Мақсудова Педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш Ўқув қўлланма Фан нашриёти Т.2009.б-93
2. ¹ Хо‘дjamuratova G.Yu. Strategik boshqarish. Darslik. –T.: «IQTISODIYOT», 2019. – 177 b. b-168
3. ¹ С.Т.Турғунов, Л.А.Мақсудова Педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш Ўқув қўлланма Фан нашриёти Т.2009.б-93
4. ¹ Р.Х. ДЖУРАЕВ, С.Т. ТУРГУНОВ Таълим менежменти ўқув қўлланма Тошкент «VORIS-NASHRIYOT» 2006. 243-б